



## DINIY-MA'RIFIY QISSACHILIKDA AN'ANAVIYLIK

Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi,  
JDPU O'zbek adabiyoti yo'nalishi doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207057>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotidagi diniy-ma'rifiy qissachilikdagi an'anaviylik va vorislik xususidagi izlanishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** salaflar va halaflar, qissachilik, an'anaviylik, traditsiya, Alisher Navoiy, Xo'janazar Huvaydo, "Rohati dil".

O'zbek adabiyotshunosligini o'rganish jarayonida salaflar va halaflar ijodidagi asarlarning salmog'li qismi an'anaviylikka asoslanganligini kuzatish mumkin. Shu o'rinda, biz an'ana va an'anaviylik termining izohiga to'xtalishni joiz deb bilamiz. Ma'lumki, adabiyotshunoslikda birinchilardan bo'lib an'ana (traditsiya) atamasini V.A.Dinnik kiritgan. Traditsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib (tradere – peredavat) uzatish ma'nosiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Biroq bu tushuncha bir qator adabiy hodisalarni ketma-ketlikda natijalarni bog'lashga nisbatan istiloh etish mumkin emas, deya uqtiradi. Shu bois ham u atamani kengaytirgan holda “taqlid qilish”, “qarz olish”, “ta'sir qilish” tushunchalari orqali anglatishga intiladi [1:972].

Keyinchalik, to'g'ririg'i 1924-yilda mazkur atama haqida M.M.Baxtin fikr bildirib, u o'zining asarlarida adabiyotni madaniyatning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlagan hamda adabiyot ham an'anaviylik xususiyatiga ega ekanligiga izoh bergan. Ya'ni, an'ana tushunchasini “Katta davr” deb tushuntirishga harakat qilib, aynan ushbu katta davrda o'ziga xos an'analar yaralishi va ijodkorlar unga munosabat bildirishini va o'z asarlarida ifoda etishilari mumkinligini izohlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligi va tadqiqotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ham an'ana borasidagi amalga oshirilgan kuzatishlarga duch kelishimiz mumkin. M.Yunusov “Barhayot an'analar” nomli tadqiqotida bu masalaga quyidagicha yondashadi: “Dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan-davrga, bo'g'indan bo'g'inga o'tib keladigan adabiy tajribalarni ko'zda tutamiz. Ya'ni traditsiya keksa bo'g'in ijodiy laboratoriyasida sinalgan, jilosi o'chmaydigan vositalarni yosh bo'g'inga topshirishdir. Amalda traditsiya – g'oyat katta bir xazina, uning turli-tuman javohirlari bor. Unda har kim o'ziga keragini, birov syujet qurishdagi mahoratini, birov yorqin xarakterlar yaratishni, birov qahramonlar psixologiyasini tasvirlashni, boshqa birov romantik parvozni va hokazolarni oladi, o'rganadi. Shu yo'sinda



traditsiyadan o‘rganish ma’lum ma’noda, badiiy tadqiqotga aylanadi” [2:17]. O‘zbek adabiyotidagi an’analar xususida mulohaza olib borganda, mumtoz an’analarga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Mumtoz adabiyotni boyitgan xususiyat esa xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Bu fikr haqida U.To‘ychiyev o‘zining “O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari” deb nomlanuvchi asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Navoiyning otasini kichik baxshi deb atashgan, u ko‘p she’rdarni yoddan bilgan, adabiyotni sevgan. Navoiyning bir tog‘asi ham shoir bo‘lgan, shu sababli mashhur shoirlar Navoiy xonadonida tez-tez to‘rlanib turishgan. Alisher Shayx Sa’diyning “Bo‘ston”, “Guliston” asarlarini sevib o‘qigan. Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yoddan bilgan. Natijada 7-8 yoshida she’r yoza boshlagan. An’ananing kuchi shu darajada ediki, Alisher dastlabki she’rlarini fors-tojik tilida yozgan. Chunki o‘sha davrda shu an’ana va ruh yetakchi edi. Navoiy ham yoshligidan ishni avval, asosan fors shoirlarini o‘rganishdan boshladi”[3:374]. Yuqoridagi fikrlarga Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi “O‘zining shayx ruhi madadidan unga o‘xshatma qilganligiga Qaqnus tamsili” bobini misol qilib keltirishimiz mumkin[4:516]. Qanqus degan bir qush bo‘lib, u Hindiston o‘rmonlarida yashaydi, uning tumshuig‘ida teshikchalar bo‘lib ulardan havo chiqarsa ajib bir kuyga aylanadi. U umrini oxiriga o‘tin yig‘ib yolg‘iz yashaydi. Umrining so‘nggida o‘tlardan yig‘ilgan hirmon ustiga chiqib, shunday bir kuy chiqaradiki, hamma hayvonlar uning atrofida yig‘ilishadi, kuy oxirida bir chuqur ox tortadi, natijada o‘tinlar yona boshlaydi va o‘zi ham yonib ketadi. Undan qolgan kuldanda esa yangi bir Qaqnusbachcha paydo bo‘lar emish. U ham umr bo‘yi o‘tin terib otasi qilgan ishni takrorlaydi. “Shayx (ya’ni Fariddin Attor) go‘yo o‘sha avvalgi qushga o‘xshaydi. U ham umrini kuy aytish bilan o‘tkazadi. U shunday ajoyib dilkash navo bilan sayradiki, uning kuyi barcha vahshiy hayvonlar va qushlarni o‘ziga rnaftun etdi... Men uni ota, o‘zimni o‘g‘il deb atamay, u bir oliy sifat shoh bo‘lsa, men uning bandasi, quliman”. Lison ut-tayr” deb ta’rif etishi orqali Fariddin Attorga g‘oyibona shogird tutingani, uni ota deb ulug‘lab u yaratgan an’anani davom ettirgani e’tirof etadi. Shu asnosida Alisher Navoiy Nizomiddin Ganjaviy XII asrda boshlab bergan, Xusrav Dehlaviy hamda Abdurahmon Jomiylar davom ettirgan Xamsachilik an’anasini davom ettirgan.

Sharq adabiyotida Qur’oni karimda zikr etilgan payg‘ambar haqidagi qissalarga asosanib yaratilgan asarlar mavjud bo‘lib, ular bir butun payg‘ambarlar xususidagi diniy-ma’rifiy qissachilik an’anasini tashkil etadi. Ularda Qur’oni karimda nomlari tilga olingan 25 ta payg‘ambarlar: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut,

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Ismoil, Ismoil, Is'hoq, Ya'kub, Yusuf, Ayub, Zul kifl, Shuayb, Muso, Horun, Ilyos, Alyasa, Yunus, Dovud, Sulaymon, Zakiriya, Yahyo, Iso va Muhammad alayhissalomlardir. Tarixda bundanda ko'p payg'ambarlar o'tganligi haqida ma'lumotlar bor, lekin ular muqaddas kitobimizga kiritilmagan. Bu hususida kitobda: “Biz Sizdan oldin (ko'p) payg'ambarlarni yuborgandirmiz. Ulardan Biz Sizga qissasini aytganimiz ham bor, yana ulardan Biz Sizga qissasini aytmaganimiz ham bordir”[5:323]. Hadislarda ham bu haqida ma'lumotlar juda ko'p: “Sahobai kiromdan Abu Zar al-G'iforiy shunday deydi: “Nabiy alayhissalomdan: “Ey, Rasululloh! Nabiylarning dastlabkisi kim?” –deb so'radim. “Odamdir!”-deb javob berdilar. “U nabiymidi?”- deb so'radim. “Ha, mukammal bir nabiy edi”, -dedilar. “Ey, Allohning rasuli! Nabiylarning soni qancha?”-deb so'radim. “Bir yuz yigirma to'rt mingta”,-deb javob qildilar. “Ey, Rasulloh! Ularning nechtasi rasul?”-deb so'radim. “Uch yuz o'n besh kishilik jamoat”,-deb marhamat qildilar”[6:32]. Shu tariqa payg'ambar xusidagi diniy-ma'rifiy qissalarga Qur'oni karim asos vazifani o'tadi. Barcha davrlarda ham alohining ma'lum bir qismigina savodli bo'lgan. Shuning uchun, qolgan qatlam vakillari esa Qur'on hamda Hadis ilmiga oid kitoblarni o'qiy olishmagan, shu tufayli omma bir o'qiganida tushunishi oson bo'lgan mashiyy hayot bilan bilan, ammo negizida diniy bilimlar va payg'ambarlar obrazlari asosidagi asarlar yozilishiga sabab bo'lgan. Hattoki bu mavzudagi asarni yozishni davr talabi bilan ilm ahlidan aholi vakillarining o'zlari iltimos qilganlar. Shuningdek davr taqozosi bilan ko'plab diniy asarlar faqat arab yoki forsiy tilda bo'lgan, bu esa oddiy odamlarga qiyinchilik to'g'dirgan. Ijodlar bu borada kitoblarning yozilishi qismida alohida to'xtalib o'tishgan. Bu xususida Xo'janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarida quyidagicha keltiriladi:

Ko'ngil shahri yagona azm qildim,

Kitobim nasr edi, man nazm qildim.

Bu Chimyon shahrining piyi javoni,

Tamomiysi erurlar turkiyxoni.

Alar garchi so'zga behunarroq,

Dedim bo'lsa kitobim turkiy behroq[7:16].

Shu tariqa diniy-ma'rifiy an'analar ruhda yozilgan “Rohati dil” asari yaratilgan. Bu asarda Qur'oni karimda nomlari keltirilgan: Iso alayhissalom, Jabroyil alayhissalom, Muhammad s.a.v va ularning xalifalari, shu bilan birga tarixda nomlari zikr etilgan mashhur avliyolar haqidagi hikoyatlar berilgan.



Sayf uz-Zafar Navbahoriyning “Durr ul-majolis” asarida ham ushbu ma’lumotlar mavjud: “Bilgilki, bu kaminayi gunohkor, bu zaif, shikasta va xokisor madad beruvchi Hazratning rahmatidan umidvor holda bu kitobni turkiy tilda o‘ttiz bob bilan tasnif etdim”[8:7]. Ushbu asarda ham payg‘ambarlarning ibratli hayotlari va Muhammad payg‘ambar, choryorlar- Abu bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali, ulardan keyin o‘tgan mashhur tasavvuf shayxlari hamda o‘z davrining alloma olimlarining ibratli hayotlaridan na’munalar keltirilgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, barcha davrlarda ham alohini diniy bilimlarini oshirishga, ularni odob-axloqqa chorlovchi asarlar yaratilgan va ular ma’lum an’anviylik asosida yozilgan. Asarlarda keltirilgan hikoyatlar bugungi kunda o‘quvchi uchun afsonadek tuyulishi mumkin, biroq ularzamidida kuchli tarbiyaviy mazmun yotadi. Shu nuqtayi nazardan bu asarlar zamonlar osha barhayot yashab kelmoqda, qiymati oshasa oshibdiki, ammo hech kamaygan emas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дынник В.А. Традиция // Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: в 2-х т. / под ред. Н. Бродского, А. Лаврецкого и др. – М.; Л.: Изд-во Л.Д. Френкель, 1925. – Т. 2: П – Я. – Стб. 972.
2. Юнусов М. Барҳаёт анъаналар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969.
3. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr . –Toshkent.: Yangi asr adabiyoti, 2019.